



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN AXLOQIY TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari kafedrasini o'qituvchisi
Yuldasheva Dilnoza Tolif qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667947>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2025
Accepted: 05th June 2025
Published: 15th June 2025

KEYWORDS

axloq, axloqiy tarbiya, milliy qadriyat, odob, shaxs shakllanishi, o'qituvchi roli, ota-ona mas'uliyati, insoniy fazilatlar, pedagogik yondashuv, ijtimoiy muhit, ota-ona va maktab hamkorligi, zamonaviy tarbiya konsepsiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilariga axloqiy tarbiya berishning mazmuni va mohiyati chuqur yoritilgan. Unda axloqiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari, uning tarkibiy qismlari, pedagogik ahamiyati hamda bu jarayonda o'qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning tutgan o'rnini tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyaning samarali kechishi uchun qo'llanishi lozim bo'lgan dars jarayonidagi axloqiy yondashuvlar va tashkiliy ishlarning o'rnini yoritilgan. Mazkur maqola boshlang'ich ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, talabalar hamda tarbiya masalasiga qiziqadigan kitobxonlar ommasi uchun foydali bo'lishi va shu bilan birga, boshlang'ich ta'limda axloqiy tarbiyani takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk inson etib tarbiyalash bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson jamiyatda yashar ekan, u doimo o'z atrofidagi odamlar bilan muomala qiladi, jamiyat orasida o'zini tutish, boshqalar bilan oson til topishish va odob-axloq qoidalariga rioya qilishga harakat qiladi. Bularning barchasi har bir insonning bolalik paytlaridan beri olayotgan axloqiy tarbiyasiga bog'liqligi va uning hayotida muhim o'ringa ega ekanligi barchamizga ma'lum. Boshlang'ich sinif o'quvchilari uchun axloqiy tarbiya tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashda eng muhim bo'g'inlardan biridir. Shu sababdan o'sib kelayotgan kelajak avlodga axloqiy tarbiyani o'rgatish faqat darslikdagi mavzu emas, balki hayotiy ehtiyojdir.

O'quvchilarni tarbiyalash jarayoniga nafaqat odamlar balki jamiyat ham mas'uldir. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonida ham o'z aksini topgan deya olamiz. Ushbu farmon "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" bo'lib, unda axloqiy tarbiya, ma'naviyat va milliy qadriyatlar asosida yosh avlodni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Axloq arabcha so'z bo'lib, "xulqning ko'rinishi" degan ma'noni anglatadi. Lotin tilida esa bu so'z "xulq-atvor" degan ma'noni bildiradi. Axloq — ruhiy-ma'naviy hayotning bir qismi, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ma'naviyatga oid muhim tushunchalardan sanaladi. Kishilarning qadimdan shakllanib kelgan xulq-atvori, yurish-turishi, jamiyatdagi o'zaro aloqalari, shuningdek, jamiyatda mavjud bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi, barqaror, aniq me'yorlar va qoidalarning yig'indisidir. Axloq avvalo halollik, adolat, e'tiqod va insof kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ajdodlarimiz komil inson haqida to'liq axloqiy me'yorlar majmuasini shakllantirishgan. Hozirgi tilda aytganda, bu — sharqona axloq normalari sanaladi. Inson qalbida harom narsalardan tiyilish, nopok ishlardan nafratlanish,

adolatsizlikka qarshi bo'lish sifati bo'lishi kerak. Bunday inson bergan so'zida turadi, birovga xiyonat qilmaydi, vataniga sadoqatli bo'ladi, xalq va yurt manfaatlarini yo'lida jonini ham fido qilishga tayyor bo'ladi. Axloq normalari kishilarning fe'l-atvori va amaliy harakatlarida namoyon bo'ladi. Ba'zan ayrim harakatlar va xulq-atvorlar axloqiy me'yorlarga zid hisoblanadi. Axloq - bu insonning xulq-atvori, odob-axloqi, ichki dunyosi va odatlari majmui bo'lib, u qanday yashashi, atrofidagi insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishi, yaxshiyomonni ajrata olishi va jamiyatda o'zini qanday tutishini belgilaydi. Axloqiy tarbiyaga keladigan bo'lsak, bu shaxsning ichki dunyosida ezgulik, halollik, vijdon, mas'uliyat, adolat, sabr-toqat va insonparvarlik singari insonning hayotiga ahamiyatli bo'lgan axloqiy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan maqsadli, tizimli va uzluksiz pedagogik jarayondir. U insonning o'zini tutishi, boshqalar bilan munosabatini axloqiy me'yorlar asosida yo'naltiradi. Axloqiy tarbiya orqali yosh avlodda nafaqat odob-axloq shakllanadi, balki ularning vijdoni, qalbi va tafakkuri ma'naviy jihatdan uyg'onadi. Yana qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, axloqiy tarbiya yordamida inson faqat jamiyatda emas, balki o'z vijdoni oldida ham mas'uliyatli bo'ladi. Bu tarbiya nafaqat yaxshi muomala qilishni, balki yomonlikdan tiyilishni, o'zini nazorat qilishni, boshqalarni tushunishni ham o'rgatadi.

Har bir bolada axloqiy fazilatlar shakllanishi uchun, avvalo, sog'lom tarbiya kerak. Bu tarbiyaning boshlanishi va eng asosiy qismi esa bolaning o'z oilasida amalga oshadi. Oila axloqiy tarbiyaning markazi hisoblanadi. Ota-onaning har bir so'zi, harakati, hatto ularning bir-biriga bo'lgan munosabati farzandda axloqiy tuyg'ularni shakllantiradi. Ota-ona farzandning birinchi ustozlari va eng ta'sirchan namoyondalaridir. Farzand, odatda, oilada ota-ona va boshqa oila a'zolarini kuzatib, ularning harakatlariga qarab o'z xulqini shakllantiradi. Ota-ona bolani nafaqat o'z hayot tajribasi bilan, balki axloqiy qadriyatlar bilan ham boyitishadi. Ota o'zining mehnatsevarligi, halolligi va adolati orqali farzandiga yaxshi xulqni o'rgatadi. Ona esa mehr-oqibati, sabr-toqati va e'tibori orqali farzandiga insofilik, sabr va mehrni o'rgatadi. Ota-onaning o'zaro hurmati, bir-biriga mehribon va adolatli munosabati farzandga oiladagi ahillikni, mehrni va mas'uliyatni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ota-onaning yaxshi axloqi farzandga namuna bo'ladi va u bolaga yaxshi muomala qilishni, boshqalarga yordam berishni va hayotda to'g'ri yo'lni tanlashni o'rgatadi. Oila, shuningdek, bolaning qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bola oilada to'g'ri va noto'g'ri xulqni ajratishni o'rganadi. Ota-onalar oilaviy nizolarni hal qilishda adolatni, tinchlikni va murosani namoyish etib beradilar. Ota-onalar o'z farzandlariga axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni o'rgatish orqali ularni jamiyatda yaxshi insonlar bo'lishga tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayoni eng muhim bosqich hisoblanadi. Bunday muhim paytda ularga milliy va diniy qadriyatlar asosida axloqiy saboqlar berish ularning hayotiga va kelajakda ulkan zafarlarga erishishiga zamin yaratib beradi. Ushbu davr inson shaxsining ildizlari qo'yiladigan davrdir. Bu ildizlar kuchli bo'lishi uchun unga milliy va diniy qadriyatlarni chuqur anglatish kerak. Masalan, kattalarga salom berish, ularning duolarini olish, ota-onani hurmat qilish, ustozlarni qadrlash kabilar. Bu qadriyatlar orqali axloqiy tarbiya mustahkamlanadi, bola nafaqat bilimli, balki odobli, vijdonli, halol va mehribon inson sifatida voyaga yetadi. Bugun biz yosh avlodga bergan tarbiyamizni, ertaga jamiyatdan olamiz. Shunday ekan, tarbiyaning kalitini qo'ldan boy bermaslik kelajakdagi eng katta yutuq hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi – bu ajdodlarimizning ko'p asrlik tajribasi, donishmandligi, hayotiy qarashlari, axloqiy me'yorlari va orzu-umidlarining ifodasidir. U insonning ruhiy-ma'naviy olamini, qadriyatlarini avlod-dan-avlodga yetkazib keladigan qudratli vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar axloqiy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Shular qatorida “Zumrad bilan Qimmat” ertagi – o'zining chuqur ma'nosi, sodda, lekin kuchli tarbiyaviy mazmuni bilan alohida o'rin tutadi. Bu ertak nafaqat qiziqarli voqealar, balki bolalarning ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladigan axloqiy saboqlar bilan to'la. Ertakda bosh qahramonlar – Zumrad va Qimmat qarama-qarshi xulqdagii ikki qiz obrazidir. Zumrad – sabrli, kamtar, mehnatkash, yaxshi niyatli oqila qiz. Qimmat – yalqov, ochko'z, mag'rur va ishyoqmas. Bu ertak xalq donishmandligining bebaho namunasi bo'lib, u axloqiy tarbiyaning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bu ertak o'quvchiga faqat voqeani emas, balki hayoti davomida qanday inson bo'lishi kerakligini o'rgatadi. U orqali farzand sabrli, halol, odobli va mehnatkash bo'lishga intiladi. Shu bois, bu kabi ertaklarni bolalarga nafaqat o'qib berish, balki ular bilan muhokama qilish, tahlil qilish lozim. Chunki ertakda berilgan axloqiy saboqlar - bu bola onggiga chuqur o'rnashadigan hayotiy darslardir.

O'qituvchi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasi shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar ko'p vaqtlarini maktabda o'tkazadilar. Shuning uchun o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi hamdir. Maktab davrida bola o'qituvchini ikkinchi ota-ona sifatida qabul qiladi. O'qituvchining har bir so'zi, xatti-harakati, qanday muomala qilishi, qanday kiyinishidan tortib, qanday holatda munosabatda bo'lishigacha – hammasi o'quvchiga ta'sir qiladi. Mutafakkirlar aytadilar: “Tarbiyada eng kuchli vosita – bu o'rnak bo'lishdir.”



Shunday ekan, o'qituvchi o'zining halolligi, rostgo'yligi, odob-axloqi, muomala madaniyati orqali o'quvchiga tarbiya beradi – bu esa bir umrga yodda qoladi. O'quvchilar darsdan avval ustozining so'zidan, yuz ifodasidan, odobidan va muomala madaniyatidan ta'sirlanadi. Agar o'qituvchining qalbi pok, so'zi rost, muomalasi

chiroyli bo'lsa – bu o'quvchilar qalbiga chuqur o'rnashadi. Shuning uchun o'qituvchi axloqiy tarbiyada so'z bilan emas, avvalo o'zining shaxsiy namunasi bilan tarbiya beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda tarbiya berish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kelajakda jamiyatni boshqaradigan, uni ilgari siljitadigan avlod bugungi maktab o'quvchilari hisoblanadi. Ularning faqat bilimli emas, balki tarbiyali, axloqli, ma'naviyatli, halol va mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishi esa, o'qituvchining darsda qo'yadigan tarbiyaviy maqsadlariga bevosita bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya bir butun jarayon hisoblanadi. Bilimning mazmuni, darsda tanlangan metodlar, berilayotgan topshiriqlar, o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi – bularning barchasi o'quvchining ichki dunyosiga, ya'ni uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir darsda faqat mavzuga oid bilimlar emas, balki shu bilimlar orqali qaysi insoniy fazilatlar, ijtimoiy qadriyatlar, milliy g'urur va axloqiy qarashlar singdirilishini ham ko'zda tutish zarur. Tarbiyaviy maqsad esa bu dars davomida o'quvchilarda ma'lum bir ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ahamiyatli yo'nalishlardan biridir. Bu fazilatlar shaxsning axloqiy kamoloti, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, madaniyati, estetik didi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Agar darsda faqat bilim berilsa-yu, insoniylikka da'vat bo'lmasa, bunday ta'lim samarasiz bo'ladi. Shu uchun, darslar har doim axloqiy ruhda olib borilishi, o'quvchining his tuyg'ulariga ta'sir qilishi,

hayotiy qadriyatlarni singdirishi, o'qituvchining shaxsiy namunasi bilan mustahkamlanishi zarur.

Tarbiyaviy maqsadlar darsning o'ziga xosligiga qarab quyidagicha ifodalanadi:

- O'quvchilarda o'z fikrini erkin va madaniyatli ifoda etishga o'rgatish;
- Do'stlik, hamjihatlik, tengdoshlarga hurmatni shakllantirish;
- Kitobxonlik orqali bilimga muhabbat uyg'otish;
- Milliy g'urur va ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- Halollik va to'g'rilikni qadrlashga o'rgatish;
- Atrof-muhitga, oila a'zolariga, maktabga mehri bo'lishga undash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi o'quvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir qilish orqali o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantiradi. Tarbiyasiz ta'lim – poydevorsiz binoga o'xshaydi. Har bir dars o'zining tarbiyaviy yo'nalishiga ega bo'lmasa, bilimni hayotga tadbiiq etish qiyin bo'ladi. Ayniqsa, bugungi tezkor information asrda bolalarning qalbini ezgulikka to'ldirish, ularni turli ma'naviy bo'shliqdan himoya qilish – o'qituvchining eng muhim vazifalaridandir. Shu sababli har bir o'qituvchi dars o'tishga kirishishdan avval, o'z oldiga maqsad qo'yib olsa, tashkil etilgan har bir dars, kelajakda ongli, axloqli, kamtarin, vatanga sadoqatli avlod yetishishiga xizmat qiladi.

Ilmning boshi – odob

Bir olim odobning ko'rinishlari haqida suhbatlashish uchun o'z shogirdlarini uyiga chaqiribdi. Bu suhbatga keksayib qolgan ustozini ham taklif qilibdi.

Uyiga yig'ilganlar tarbiya, odob-axloq haqida qizg'in suhbatni boshlab yuborishibdi, olim taom tayyorlash uchun chiqib ketibdi.

Olimning ustozini mehmondorchilikka biroz kechikib, poygakka kelib o'tiribdi. Odmi kiyingan qariyaga hech kim e'tibor ham bermabdi.

Yig'ilganlarning hammasi bir-birlarini kutmay, tovushlarini ko'tarib o'z fikrlarini aytishar edi. Shu orada xonaga olim kirib kelibdi va ustozini bilan suhbatlasha boshlabdi. Shu payt yig'ilganlardan biri olimdan o'zaro munozaraga sabab bo'layotgan masala haqida fikr so'rabdi. Olim bu haqida ustozining fikrini bilishi kerakligini aytibdi...

Bu matndan shuni anglashimiz mumkinki, insonning ilmi agar uning axloqi bo'lmasa hech qanday ahamiyatga ega emas. Insoniyat tarixidagi eng ulug' martaba bu ilm egasining martabasi bo'lib kelgan. Ammo bu yuksak maqomga yetishish faqatgina bilim to'plash bilan emas, balki odobni o'zlashtirish bilan boshlanadi. Zero, ilmning boshi – odobdir. Bu so'zlar chuqur hikmat va hayotiy haqiqatni o'zida mujassam etadi.

Odob – bu insonning o'zini va boshqalarni hurmat qilishda namoyon bo'ladigan axloqiy mezon, jamiyatda munosabatlar me'yor, qalbdagi insof va e'tiborning amaliy ifodasidir. Ilmni egallashdan avval shaxsda odob bo'lmasa, u holda bilim halokatga sabab bo'lishi, g'urur, takabburlik va adashuvga yetaklashi mumkin. Chunki odobsiz ilm – quolsiz askardek ojiz, maqsadsiz kuchga o'xshaydi. Bugungi kunda bilimli insonlar ko'p, biroq odobli, halim, kamtar va sabrli ilm sohiblari kam. Ilm egasi – faqat kitoblarni yod olgan emas, balki o'zini jamiyatda qanday tutishni bilgan, ustozini e'zozlaydigan, boshqalarga o'rnak bo'ladigan shaxsdir. Ustozlar: "Avval odob, keyin adab, so'ng ilm" deganlar. Chunki odobsiz inson qancha bilimli bo'lmasin, odamlar qalbiga yo'l topolmaydi.

Bugungi zamonaviy texnologiyalar asrida bilim olish osonlashdi, ammo odobli, axloqli bo'lish tobora qiyinlashmoqda. Telefon, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali ilm olish bilan birga, ba'zida beodoblik, hurmatsizlik, kattalarni mensimaslik kabi illatlar ham kirib kelmoqda. Shunday sharoitda har bir yosh avvalo o'zini tarbiyalashi, odobli bo'lishga intilishi zarur. Zero, ilm yurakka faqatgina odob orqali kiradi. Ota-onasining duosi, ustozning rizoligi ham – odobga bog'liq. Demak, haqiqiy ilmga eltuvchi yo'l – odob bilan, axloq bilan boshlanadi. Ilm egasi bo'lishni istagan har bir inson, avvalo, qalbini tozalashi, o'zini tarbiyalashi, ustozini

hurmat qilishi va jamiyatda ibratli bo'lishi kerak. Chunki odobsiz ilm g'ururga, odobli ilm nurga eltadi.

❖ **Hikmat:** "Ilmsiz axloq bo'lishi mumkin, lekin axloqsiz ilm musibatdir,"

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf davrida o'quvchining shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlarga bo'lgan munosabati shakllanadi. Ushbu jarayonda axloqiy tarbiyaning roli beqiyosdir. Maqolada ta'kidlanganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axloqiy tarbiya berishda o'qituvchi, ota-ona, maktab muhiti va jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim. O'qituvchi dars jarayonida bilim berish bilan birga, har bir harakati, so'zi, muomalasi bilan o'quvchiga namuna bo'lishi kerak. Ota-onalar esa o'z farzandlariga mehribonlik va qattiqqo'llik uyg'unligida, aniq maqsadli axloqiy yo'l-yo'riqlar orqali tarbiya berishlari zarur. Bundan tashqari, badiiy adabiyotlar, milliy qadriyatlarni singdiruvchi tadbirlar ham axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Shu boisdan, boshlang'ich sinfda berilgan axloqiy tarbiya – bu kelajak avlodning ma'naviy poydevori, sog'lom jamiyatning asosi, millatning ertangi taqdirini belgilovchi hal qiluvchi bosqichdir. Axloqiy tarbiya puxta yo'lga qo'yilgan taqdirda, biz kelajakda nafaqat bilimli, balki odobli, mas'uliyatli, mehribon, vatanparvar va sog'lom tafakkurga ega yoshlarni voyaga yetkazamiz. Bu esa har bir shaxsning eng buyuk yutug'idir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son.
3. Berdiyeva G.Sh. Faoliyatli yondashuv – o'quvchilarda qadriyatli muloqot madaniyatini shakllantirish omili sifatida. Ta'lim va innovasion tadqiqotlar (2022 yil №2). DOI: <https://doi.org/10.53885/yedinryes.2022.14.62.013>
4. Raxmonqulova.Z, Jo'rayev.D "Axloqiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti" Samarqand-2020
5. Usmanova O.V., Risyukova Y.V. Tarbiya 2-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Novda nashriyoti Toshkent-2023.
6. OCHILOVA, F. (2025). PHILOSOPHICAL AND RELIGIOUS REFLECTION ON HEALTH AS THE HIGHEST VALUE OF HUMAN LIFE. *News of the NUUZ*, 1(1.2), 198-200.
7. Mahmudova, M. D., & Quldasheva, M. N. (2019). USING FROM THE LEADING INNOVATIONAL METHODS IN TEACING ON THE THEME "SOCIAL-ECONOMICAL GROUPS OF THE WORLD COUNTRIES", THE POLITICAL MAP OF THE WORLD AT THE PRESENT TIME. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 270-275.
8. Тажибоева, Г. (2023). Описание технологий формирования критического мышления у студентов в процессе преподавания предмета воспитание. *Общество и инновации*, 4(3/S), 70-79.
9. Umarjonovna, J. T. (2024). Competency-Based Approach in Higher Education and Prospects for The Development of The Uzbek Language. *International Journal of Scientific Trends*, 3(11), 65-69.
10. Nuraliyeva, K. I. (2021). BOSHLANGICH SINIF OQUVCHILARINING KREATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 208-214.
11. Isakov, A. (2023). Approaches to Teaching Art in a Digital Age: An Analytical Review of Research between 2000-2021. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 8-19.
12. Ibraximjonovna, J. M. (2022). Analytical reading is the basis of integration between subjects. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1114-1118.

13. Rano, L. X. (2022). Formation of communicative competence in primary school students through productive learning. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 300-307.
14. Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna. (2024). O'QISH DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING BOG'LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 3(2), 40–46. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/3676>
15. Mamayusupova Muattar Qosimjonovna.(2025). The Importance Of Implementing Effective Management Mechanisms In Educational Organizations. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments. [Vol. 3 No. 01 \(2025\): PCJPD](#) ,79-83

